Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Botirov Erkinjon Xayitovich

TMI, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda meva-sabzavotchilik klasterlarni barpo etish zaruriyatidan kelib chiqib, xorij tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish nazariy-ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Milliy iqtisodiyotning uzoq mudallati rivojlanish ssenariysi uning an'anaviy va yangi bilim talab qiladigan tarmoqlarda raqobatbardoshligining o'sishini nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: hududiy lokalizatsiya, ilm-fan, innovatsiya, mintaqaviy strategiya, oziq-ovqat klasteri, klasterlash tizimi, globalashuv, bilimlar iqtisodiyoti, vechur fondlar, startap loyihalar.

Botirov Erkinjon Xayitovich

TFI, Independent researcher

Abstract: This article discusses the theoretical, scientific and practical aspect of studying and implementing foreign experience in practice in connection with the need to create fruit and vegetable clusters in our country. The long-term scenario for the development of the national economy assumes the growth of its competitiveness in both traditional and new industries that require knowledge.

Key words: territorial localization, science, innovation, regional strategy, food cluster, cluster system, globalization, knowledge economy, venture funds, startup projects.

Ботиров Эркинжон Хайитович

ТФИ, Независимый исследователь

Аннотация: В данной статье рассматривается теоретико-научно-практический аспект изучения и внедрения зарубежного опыта в практику в связи с необходимостью создания плодовоощных кластеров в нашей стране. Долгосрочный сценарий развития национальной экономики предполагает рост ее конкурентоспособности как в традиционных, так и в новых отраслях, требующих знаний.

Ключевые слова: территориальная локализация, наука, инновации, региональная стратегия, продовольственный кластер, кластерная система, глобализация, экономика знаний, венчурные фонды, стартап-проекты.

KIRISH

Mamlakatimiz oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti zanjirida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da belgilanganidek, "qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integratsion aloqalarning yetarli taraqqiy etmaganligi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklamoqda" [1].

Shu munosabat bilan respublikamizda fermer xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalari bilan chuqur hamkorligini ta'minlashga qaratilgan "agrosanoat klasterlari"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Sirdaryo viloyati Oqoltin tumaniga tashrifi chog'ida: "Klaster va manfaatdorlik – O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi. Ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etmay turib, bu sohani raqobatbardosh qilib bo'lmaydi", deb ta'kidlab o'tgan edi.



“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yangi va foydalanishdan chiqqan yerkarni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash darajasini oshirish va ularning narxлari barqarorligini saqlash kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, oziq-ovqat yetishtirish tarmoqlarida klasterlashuv tendensiyalari Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi yetakchi mamlakatlarda kuchli rivojlangan bo‘lib, bu mamlakatlarning agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini chuqr o‘rganish va ularni mamlakatimiz sharoitlariga moslab qo’llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI:

Globallashuv sharoitida mintaqaning rivojlanish strategiyalari fan va texnika yutuqlariga, innovatsiyalarga asoslanadi. Shuningdek, iqtisodiyotni klasterlashtirish asosida rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishning innovatsion texnologiyasi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarida klasterlash nazariyasi eng to‘liq shakl va tizimga ega bo‘lgan M. Porterning so‘zlariga ko‘ra, zamonaviy iqtisodiyotda, ayniqsa, globallashuv sharoitida, uning an‘anaviy tarmoqlar yoki tarmoqlarga bo‘linishi o‘z kuchini yo‘qotmoqda, klasterlar yuqoriga chiqadi [2].

M. Porter mamlakatning raqobatbardoshligini uning alohida firmalarining emas, balki klasterlar – turli sohalardagi firmalar uyushmalarining xalqaro raqobatbardoshligi orqali ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblaydi va bu sinflarning ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini muhim ahamiyatga ega [2].

Yu. N. Lapyrig‘in va D. A. Korchajkinlar fikricha, klaster tizimida – hududiy lokalizatsiyada ishtiroy etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismi qatnashadi [6].

I. V. Pilipenkonning qayd etishicha, mintaqaviy klaster – bu klasterga a’zo firmalar geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan sanoat klasteridir [4].

A. I. Kibitkin va V. E. Emelyanovlar so‘zlariga ko‘ra, hukumat, akademik va ishbilarmon doiralar o‘rtasida axborot almashish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan kuchli klasterlarni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali sanoat tumanlari o‘z iqtisodiyotlarini mustahkamlaydi [3].

D. A. Yalovning qayd etishicha, mintaqaviy strategiyani ishlab chiqishda mintaqada mavjud bo‘lgan asosiy o‘sish nuqtalarini va ushbu asosiy o‘sish nuqtalarini ishlab chiqish uchun turli xil qiziqish guruhlari nima qilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Klasterlarni rag‘batlantirishga asoslangan mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish biznes va ma’muriyatlarning tashabbusi va birgalikdagi sa’y-harakatlarini nazarda tutadi [5].

L. S. Markov va M. A. Yagolnitserlar tadqiqotlariga ko‘ra, klaster subyektlari o‘rtasida o‘zaro ta’sirlarni kengaytirish va chuqurlashtirish (shu jumladan biznes va fan), ayniqsa, sohada ilmiy hamkorlik va tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish, mahalliy tovarlarni tashqi bozorlarga ayirboshlash va mintaqaga yanada murakkab raqobatchilar, yetkazib beruvchilar va iste’molchilarini jaib qiladi [7].

Global dunyoda nazar soladigan bo‘lsak, keyingi yillarda klasterlar rivojlanishini innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yevropa mamlakatlari klasterlashtirish, hozirgi kuchli raqobat muhitida firmalarning raqobatbardoshligi xarajatlar hajmiga bog‘liq bo‘lmasdan, ko‘proq ularning innovatsion salohiyati, mahsulotlar diversifikasiyasini va sifatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotning uslubiy asosi bo‘lib ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liklik va aloqlar, meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarini yechimini topish imkonini beruvchi tizimli, manтиqiy, qiyosiy va matematik iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan va o‘rganib chiqilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi ma’lumotlarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda faol klasterlashtirish siyosati (KS) 21-asr boshlaridan amalga oshira boshlangan va hozirgacha 5 bosqichdan iborat davrni qamrab oladi.

1-bosqich (2000-2006-yillar) – Yevropa Komissiyasi PHARE dasturi orqali klasterlarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan sinov (pilot) tashabbus dasturlarini amalga oshira boshladi. “Yevropa mamlakatlari klasterlashtirish to‘g‘risidagi manifest” (2006 y.) qabul qilindi.

2-bosqich (2007-2009-yillar) – “Klasterlar to‘g‘risidagi Yevropa memorandumi” (2008 y.) qabul qilindi, Yevropa Klaster observatoriyasiga asos solindi va axborot-tahvilili materiallar bazasi yaratila boshlandi.

3-bosqich (2010-2012-yillar) – klasterlashtirish dasturlari sifatini oshirishga, ularni baholash va tabaqalashtirish instrumentlarini shakllantirishga hamda klasterlarni boshqarish bo‘yicha yuqori malakali menejerlar tayyorlashga e’tibor qaratildi.



4-bosqich (2013-2017-yillar) – “aqlli ixtisoslashuv” va “o’sish nuqtalari” tamoyillari asosida klasterlarni hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiyalash orqali hududlarning raqobat ustunliklarini oshirishga va tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirishga ko’maklashish.

5-bosqich (2017-yildan hozirgacha) – yangi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida klasterlarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan keng ko’lamli dasturlarni amalga oshirish.

Ma’lumotlarga ko’ra, 21-asrning dastlabki o’n yilligida Yevropaning 28 mamlakatida 42 mln. kishi band bo’lgan 2101 klaster faoliyat yuritgan bo’lib, ularning 241 tasi yoki 11,5 %ini agrokластерлар ташкил этиган ва уларда жами klasterlarda bandlarning 4,5 millioni yoki 10,8 % faoliyat yuritgan.

Yevropa mamlakatlari ichida agrosanoat klasterlari soni bo'yicha Gretsya (36), Ispaniya (35), Bolgariya (22), Fransiya (20), Polsha (19), Ruminiya (16), jami tarmoq klasterlari sonida agrosanoat klasterlari salmog'i bo'yicha Bolgariya (45,8 %), Gretsya (45,0 %), Ispaniya (23,8 %), Islandiya (20,0 %), Vengriya (18,6 %), Niderlandiya (14,5 %), Fransiya (12,1 %) va Polsha (11,8 %) yetakchilik qiladi.

Hozirgi kunda Yevropada klastelararo tizim (network) shakllanishi jarayoni chuqurlashmoqda. Jumladan, bunga misol tariqasida oziq-ovqat tarmoqlaridagi klasterlarni yagona tizimga birlashtirish uchun 2007-yilda asos solingenan “Oziq-ovqat klasteri tashabbusi (Food Cluster Initiative)”ni keltirish mumkin. Bu tashabbus “Yevropa Oziq-ovqat innovatsion tarmog'i loyihasi – FINE (Food Innovation Network Yeurope)” bazasida yuzaga kelgan. Bu loyiha oziq-ovqat sektorida faoliyat yurituvchi klasterlar tarmog'i bo'lib, u quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: klasterlar joylashgan hududlar iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoati muhim rol o'ynaydi; mazkur hududlarda qishloq xo'jaligi tarmog'i yaxshi rivojlangan; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish sohalarida ilm-fan yutuqlari keng qo'llaniladi; oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanadi; klasterlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar va institutsional tuzilmalar keng taraqqiy etgan.

Yevropadagi yirik shaharlar aglomeratsiyasi atrofida oziq-ovqat klasterini (inglizchadan Metropolitan Food Cluster) shakllantirish jarayonlari kuchayib bormoqda. Ularning shakllanish xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- vertikal integratsiya (xom ashyodan tayyor mahsulot yetishtirishgacha): oziq-ovqat mahsulotlari narxida qo'shilgan qiymatning 60 %igacha qismi qayta ishlash va sotish jarayonlarida shakllanadi. Bu jarayonlarni yagona zanjirga birlashtirish resurslar (foyda)ning bir qismini quyi zvenodagi ishlab chiqaruvchilarga yo'naltirish imkonini beradi;
- gorizontal integratsiya: mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish chiqindilar va yo'qotishlarni kamaytirib, qo'shimcha va yondosh mahsulotlardan samarali foydalanishga yo'l ochadi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmalar, kadrlar salohiyati va ilg'or tajribalardan birgalikda foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, unumdonlikni oshiradi.

Bunga misol tariqasida Avstriyaning “Plus Yeco” oziq-ovqat klasterini keltirish mumkin. Klasterda ishtiroy etuvchi kompaniyalar soni – 104 ta. Xodimlar soni – 11,7 ming kishi. Tovar aylanmasi – 2,8 mlrd. yevro. Maqsadi: organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki bozorini rivojlantirish; yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; ishlab chiqarishning innovatsion usullarini joriy etish.

Oziq-ovqat klasterini tarkibiga kiruvchi faoliyat yo'nalishlariga organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar va qadoqlash materiallari ishlab chiqarish; laboratoriyalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish asosida innovatsion mahsulotlar yaratish; oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosini kiradi.

Mazkur metropol oziq-ovqat klasteri (Metropolitan Food Cluster) Avstriyaning yirik shaharlari atrofida joylashgan bo'lib, ko'p sonli shahar aholisini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash imkonini bermoqda.

Daniya. Daniya Yevropaning eng taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri sanaladi va bu mamlakatning klasterlash siyosatini o'rganish diqqatga sazovor. Global raqobatbardoshlik reytingi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo ko'lamida raqobatbardosh klasterlar yaratish jarayoni bo'yicha Yevropa mamlakatlaridan eng yuqori ko'rsatkichni Daniya (dunyo bo'yicha 5-o'rinn) egallagan.

Daniyaning agrosanoat makroklasteri tarkibi tuzilmasi kamida 5 ta elementni o'z ichiga oladi:

- qishloq xo'jaligi xom ashyosini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari;
- qayta ishlash korxonalari va kooperativlari;
- xizmat ko'rsatish infratuzilmalar; ilmiy tadqiqot va o'quv muassasalari;
- institutsional tuzilmalar (davlat boshqaruvi organlari, uyushmalar, jamg'armalar) (1-rasm).



<p>I bosqich-Xom ashyo resurslari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 70 mingga yaqin oilaviy fermer xo'jaliklari; - bir fermer xo'jaligining o'ttacha yer maydoni -40-50 ga 	<p>III bosqich-Xizmat ko'rsatish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish infratuzilmalari; - bank-moliya, sug'urta, sotish va boshqa bozor infratuzilmalari.
<p>II bosqich-Saqlash va qayta ishlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> -fermer xo'jaliklari ulush qo'shib tashkil etgan 300 dan ortiq tayyorlov va qayta ishlash kooperativlari (80% xom ashyo kooperativlarda qayta ishlanadi); -mustaqil qayta ishlash korxonalari. 	
<p>IV bosqich-Ilmiy-innovatsion ta'minot:</p> <ul style="list-style-type: none"> -12 ta universitet, 5 ta ilmiy markaz, 100 genetik-seleksiya va biotexnologiya laboratoriylari, 25 ta kollejlari; -keng tarqalgan axborot-maslahat (konsalting) xizmatlari. 	<p>V bosqich-Institutsional qo'llab-quvvatlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Qishloq xo'jaligi kengashi; -Kooperativlar federatsiyasi; -Fermerlar ittifoqi federatsiyasi; -davlat boshqaruv organlari; -turli jamg'armalar va boshqalar.

1-rasm: Daniya agrosanoat klasteri tarkibi

Fermerlar moddiy-texnika ta'minoti, tayyorlov va qayta ishlash, texnika va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bir yoki bir nechta kooperativ a'zosi bo'lishi mumkin. Bu klaster tizimining ustunlik tomoni shundaki, fermerlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar kooperativlar tomonidan to'liq qabul qilinadi va qayta ishlash yoki sotish jarayonlari bilan kooperativlar shug'ullanadi. Fermerlarning o'zлari kooperativlarning mulkdorlari bo'lgani tufayli olingen foyda ular o'tasida mutanosib (topshirgan mahsuloti yoki ustav kapitalidagi ulushiga qarab) taqsimlanadi.

Ilmiy tadqiqot muassasalari klaster a'zolarini innovatsion g'oya va ishlanmalar bilan ta'minlaydi. Innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltiriladigan ilmiy tadqiqot xarajatlarining 80% i va maslahat xizmatlari haqining 10 % davlat tomonidan qoplanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh). Tadqiqotlarga ko'ra, klasterlar rivojlanishi bo'yicha dunyodagi uchta yetuk markazlardan (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa va Janubi-sharqiy Osiyo) biri AQSh sanaladi. Klaster siyosatining amerikacha modeli nisbatan liberalligi va tabiiy-evolyutsion tarzda shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Ya'ni bu mamlakatda klasterni shakllantirish borasidagi asosiy tashabbuslar davlat emas, balki biznes, universitetlar, ilmiy markazlar va jamg'armalar zimmasiga tushadi.

AQShda klasterlashtirish jarayonlari 1970-80 yillarda boshlangan. Garvard biznes maktabining Raqobat va strategiyalar instituti tomonidan klaster rayonlari kartasi ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda 400 dan ortiq turli sohalarga ixtisoslashgan klasterlar faoliyat olib boradi.

AQShda ko'p sonli agrosanoat klasterlari mavjud bo'lib, ularning eng kuchlilari Washington, Oklaxoma, Luiziana, Janubiy Karolina va Kaliforniya shtatlarida faoliyat ko'rsatadi. AQShning Kaliforniya vinochilik klasteri tuzilishi va rivojlanishini o'rganish amaliy qiziqish uyg'otadi.

Kaliforniya vinochilik klasteri tashkiliy tuzilmasi ikkita qismdan tashkil topgan:

1. Yadro – uzum yetishtiruvchi xo'jaliklar va uni qayta ishlovchi vinochilik kompaniyalari.
2. Satellitlar – moddiy resurslar ta'minoti, turli xizmatlar, sotish, ilmiy ta'minot va institutsional qo'llab-quvvatlash tuzilmalari.

Klaster tizimi joriy etilishi natijasida Kaliforniya AQShning 90 % uzum va 80 %dan ortiq vino mahsulotini tayyorlab beradigan yirik hududga aylandi. Klasterga kirgan fermer xo'jaliklari va kompaniyalarda 299 ming hektar uzumzorlar mavjud va 40 mingga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qiladi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Kaliforniya vinochilik klasteri o'z tarkibida barcha zaruriy tuzilmalarni olgan va samarali tizimga ega zamonaviy agrosanoat klasteri sanaladi.




Yaponiya. Yaponiyada klasterlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda markaziy va hududiy davlat organlarining roli kuchli. Hududiy organlarga o'z mablag'lardan klaster tashabbuslarini amalga oshirishga ruxsat etilgan. Bu jarayonda vechur jamg'armalari, universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va korporativ biznes tuzilmalari faol hamkorlik qilishadi. Klasterlashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad biznes, ilmiy jamoalar va davlat organlarining samarali hamkorligi orqali innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va hududlar raqobatbar-doshligini oshirishdir.

Innovatsion ishlanchalmalarni biznesda qo'llash va tijoratlashtirishga intilish yapon klasterlarining asosiy xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Yaponiyada "Bilimga asoslangan klaster tashabbusi (Knowledge cluster initiative)" dasturi doirasida 18 hududda klasterlarni rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Bu dasturda mahalliy universitetlar kichik innovatsion firmalar va yirik sanoat kompaniyalari hamkorligini ta'minlovchi yadro vazifasini o'taydi.

Mazkur hududning raqobat ustunligi asosan ikki tarmoq: oziq-ovqat sektori va turizmda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababdan mazkur sohalarga ustuvor ravishda mablag'lar ajratilib, loyihibar shakllantiriladi. Xokkaydoning Yaponiya rivojida alohida ahamiyati borligini e'tiborga olib, bu hududga davlat subsidiyalari ajratishda alohida oshirilgan koeffitsiyentlar qo'llaniladi.

Sanoat va unga tutash tarmoqlarda klasterlarni shakllantirish 3-rasmida keltirilgan tartibda amalga oshirilgan. Keltirilgan rasm asosida xulosa qilish mumkinki, Yaponiyaning Xokkaydo hududida sanoat klasterlarni shakllantirish va hudud bo'ylab joriy etish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqilgan va bunga mas'ul tashkilotlar hamda ularning vazifalari belgilab berilgan. Har bir viloyatda "Klasterlar kooperatsiyasi kengashi" va uning shtabi shakllantirilgan.



2-rasm: Xokkaydo gubernatorligida klasterni shakllantirish tizimi

Xokkaydoda shakllangan klasterlash tizimi quyidagi yondashuvlar asosida shakllantirilgan.

Klasterlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilishi va davlat budgetidan moliyalashtirilishi, bu jarayonga davlat organlaridan tashqari turli nodavlat institutsional tuzilmalar (uyushmalar, jamoat fondlari, boshqa jamoat tashkilotlari), moliya-kredit (banklar, vechur fondlar va h.k.) hamda ilmiy tadqiqot muas-sasalarining keng jalb etilishi bu jarayonga davlat miqyosida tizimli yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Janubiy Koreya. Janubiy Koreyada agrar va oziq-ovqat sektorini klasterlashtirish jarayonlari davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sanaladi, tarkibida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha guruh faoliyat ko'satadi.

Janubiy Koreyaning Shimoliy Jeola provensiyasidagi Iksan hududida (Iksan, North Jeolla Province) Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va qishloq masalalari vazirligi va Jeola provensiyasi hukumati ko'magida 232 hektar yer maydonida Koreya Milliy oziq-ovqat klasterini (Korea National Food Cluster – "Foodpolis") tashkil etish uchun 480 mln. AQSh dollari qiymatida investitsiya sarflangan bo'lib, klasterda 150 ta oziq-ovqat yetishtiruvchi kompaniyalar va 10 ta ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat ko'satadi.

Mazkur klaster "bilimga asoslangan innovatsion mahsulot" yondashuvi asosida faoliyat olib boradi va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlar bilan mustahkam aloqaga ega:

- Qishloq hududlarini rivojlantirish ma'muriyati (Rural Development Administration);
- Koreya Oziq-ovqat ilmiy tadqiqot instituti (Korea Food Research Institute);



- Dehqonchilik fanlari milliy instituti (National Institute of Crop Science);
- Bog'dorchilik va dorivor o'simliklar fanlari milliy instituti (National Institute of Horticultural Herbal Science);
- Qishloq xo'jaligi fanlari milliy akademiyasi (National Academy of Agricultural Science);
- Zootexnika va veterenariya milliy instituti (National Institute of Animal Science);
- Iksandagi Vonkvang universiteti (Wonkwang University in Iksan);
- Jeonbuk milliy universiteti (Jeonbuk National University).

Klaster tizimidagi firma va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish maqsadida “Foodpolis” klasteri huddida 6 ta tuzilma tash-kil etilgan:

- Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash markazi (Food Functionality Assessment Center);
- Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlash markazi (Food Quality Safety Center);
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash markazi (Food Packaging Center);
- Koreya oziq-ovqat klasterlari agentligi (Agency for Korean Food Cluster);
- Kichik firmalarga ijaraga berish uchun qurilgan zavodlar (Rental Plants);
- tajriba namunalarini yaratadigan sinov zavodi (Pilot Plant).

Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Koreya Milliy oziq-ovqat klasterida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi mahsulot g'oyasini shakllantirish – ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish – mahsulotni sinov namunasini ishlab chiqarish – sanoat ko'lamida ishlab chiqarishni yo'nga qo'yish – realizatsiya qilish bosqichlari biznes – ilmiy tadqiqot – davlatning mustahkam hamkorligi asosida tashkil etilgan.

XULOSA

Meva-sabzavotchilik klaster strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish sohasidagi jahon amaliyotini tahlil qilish natijasida, O'zbekistonda Janubiy Koreya agrosanoat klasterlarining: qishloq hududlarini rivojlanishning dasturlarini qo'llab-quvvatlash; qishloq hududlarida demografik holatni yaxshilash (qishloq aholisi, asosan yoshlarning shaharga ketib qolishini kamaytirish); tarixiy uylarni aslicha saqlab qolish va turizm obyektiiga aylantirish; agroturizm (shahar aholisi va bolalar uchun o'z qo'llari bilan meva-sabzavotlarni uzish yoki ularni qayta ishlab va tayyorlashda ishtirok etish); qishloqda mehmonxona biznesini yo'nga qo'yish; festival va turli tadbirlar o'tkazish tajribalaridan samarali foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, “globallashuv” va “bilimlar iqtisodiyoti” sharoitida klasterlar innovatsion rivojlanishning eng asosiy manbalaridan biri bo'lib borayotgshanligi, rivojlangan mamlakatlar klasterlari tarkibida “bilim va innovatsiyalar bloki”, ya'ni universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, sinov laboratoriyalari, vechur fondlar va startap loyihibar ishtiroki asosiy shartlardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda shakllantirilayotgan meva-sabzavotchilik klasterlar tarkibida “Innovatsion ishlanmalar va yangi biznes g'oyalarini joriy etish” markazlari (laboratoriysi)ni shakllantirish, klaster ixtisoslashuvidan kelib chiqib yetakchi universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini ularga birkiritish, ilmiy-innovatsion markazlar, vechur fondlar va kompaniyalar bilan mustahkam hamkorlikni yo'nga qo'yish maqsadga muvofiq.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlanirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-soni Farmoni.
2. Портрет М. Международная конкуренция. М.: Международные отношения, –1993. 896 с. 4.
3. Кибиткин А. И., Емельянов В. Е. Механизмы и инструменты формирования транснациональных кластеров на базе действующих промышленных комплексов. СПб.: ОЦЭиМ, –2006. 122 с.
4. Пилипенко И. В. Конкурентоспособность стран и регионов в мировом хозяйстве: теория, опыт малых стран Западной и Северной Европы. Смоленск: Ойкумена, –2005. 496 с.
5. Ялов Д. А. Эксперт Фонда ЦСР “Северо-Запад”, Кластерный подход как технология управления региональным экономическим развитием. Журнал “Компас промышленной реструктуризации”. <http://compass-r.ru/st-3-03-1.htm>.
6. Лапыгин Ю. Н., Корчакина Д. А. Организация производственного взаимодействия на основе реализации кластерных принципов. ВлГУ Электронный журнал № 18 декабрь 2007 г. <http://journal.vlsu.ru/index.php?id=11>.
7. Марков Л. С., Ягольницев М. А. Исследование научноемких компаний Новосибирска. Кластерный подход. Центр кластерных инициатив. <http://www.cluster-center.ru/gpage.html>.
8. Botirov E. X. Innovatsion meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlanirishning o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent: “Iqtisodiyot va ta'lif” ilmiy jurnal. Tom 24 soni 5(2023). 381-386 b. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a64.
9. Botirov E. X. Meva-sabzavotchilik tarmog'ida zamonaviy klasterlarni moliyalashtirish mexanizmi. Toshkent: Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. Elektron nashr. May. 2023. – №5-son – B. 73-75.
10. Botirov E. X. Meva-sabzavotchilik klasterlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning strategik ustuvor yo'nalishlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA ilm-fan bo'limi (Elektron jurnal). Ilmiy nashr. 2023-yil oktyabr soni, –№10 (48). –66-71 b.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

